XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-yanvar VII-3-3-1-0-K/25 Andijon viloyati

Xalq deputatlari viloyat Kengashining qaroriga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 428-son qarori, viloyat hokimining 2023-yil 27-oktabrdagi 280-1-0-Q/23-sonli qarori, Andijon viloyati hokimligi, Tashqi reklama faoliyatini muvofiqlashtirish boʻlinmasi boshligʻi A.Hamraqulovning 2024-yil 16-sentabrdagi 20-59-68-sonli xati hamda Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi.

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 428-sonli qaroriga asosan qabul qilingan viloyat hokimining 2023-yil 27-oktabrdagi 280-1-0-Q/23-sonli qarori asos uchun qabul qilinsin

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 12-iyundagi VI-61-80-1-0-K/24-sonli qarorining 1- va 2-ilovalari quyidagicha:

- Andijon viloyatida tashqi reklama obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish uchun yagona oylik yigʻim miqdorlari 1-ilovaga;

- transport vositalarida (yoʻnalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) reklama joylashtirish ish uchun yagona yigʻim miqdori 2-ilovaga muvofiq oʻzgartirilsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi “Reklama toʻgʻrisida”gi Qonunining 20-moddasiga muvofiq, ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama va axborotni tarqatuvchilar reklama uchun ajratilgan efir vaqti, nashr yoki reklama maydoni umumiy oylik hajmining besh foizidan kam boʻlmagan hajmda ijtimoiy axborotni joylashtirish shartligi, bunda faoliyati

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan toʻliq moliyalashtiriladigan va (yoki) oʻz ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foiz hamda undan ortiq boʻlgan reklama tarqatuvchilar davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining buyurtmasiga koʻra ijtimoiy axborotni bepul joylashtirish belgilanganligi inobatga olinsin.

4. Viloyat hokimligi tashqi reklamalarni muvofiqlashtirish boʻlinmasi (A.Mamarasulov) mavjud reklamaga oid hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi R.Eshonov mazkur qaror rasmiy eʼlon qilinishi munosabati bilan ommaviy axborot vositalari hamda WWW.andijan.uz veb saytiga joylashtirilishini taʼminlasin.

6. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazorat olib borish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (X.Omanov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan boshlab 15 kundan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi AXUNOV UKTAMJON
XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2025-yil 13-yanvardagi
VII-3-3-1-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Viloyatda tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni joylashtirish bo‘yicha oylik yig‘im

MIQDORLARI

№	Tashqi reklama vositalari turlari	Qarorga asosan belgilangan minimal yig‘im, 1 kv.m. /BH Mning %)*	Tashqi reklama vositalari uchun oylik yig‘im miqdori, 1 kv.m./so‘m*	
			Tavsiya etilayotgan narx,, 1 kv.m./so‘m (Andijon shahri)	Viloyatning boshqa tuman va shaharlarida va xalqaro ahamiyatga ega barcha avtomobil yo‘llarida tavsiya etilayotgan narx, 1 kv.m./so‘m
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**1,0**	**0,8**
1.	Bilbordlar	**5**	18750	15000
2.	Tom qurilmalari, binolarning tom qismlardagi konstruksiyalar	5	18750	15000
3.	Devor pannosi	5	18750	15000
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**2,0**	**1,5**
4.	Elektr ekranlar (video ekranlar, “yuguruvchi satrlar” displeylari va boshqalar), LED ekran	5	37 500	28 125
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**2,0**	**1,5**
5.	Yorug‘lik tarqatuvchi barcha tashqi reklama vositalari	5	37 500	28 125
6.	Hajmlik harflar	5	37 500	28 125
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**2,5**	**2,0**
7.	Reklama joylashtirilgan Bekatlar	100	937 500	750 000
8.	Reklama joylashtirilgan savdo do‘konlar	100	937 500	750 000
qo‘llanilayotgan koeffitsiyent			**2,5**	**2,0**

9.	Umumiy ovqatlanish joylari	100	937 500	750 000

*Mazkur hisoblangan tariflar bazaviy hisoblash miqdori (BHM) o‘zgarishi munosabati bilan qayta hisob-kitob qilinadi

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2025-yil 13-yanvardagi
VII-3-3-1-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyatida transport vositalarida (yoʻnalishdagi avtobuslar bundan mustasno) reklamani joylashtirish uchun belgilangan yagona yigʻim

MIQDORI

№	Transport vositalarining toifalari	Oʻlchov birligi	BHMga nisbatan
1.	Yengil avtomobillar uchun 1 yillik toʻlov	dona	1,5 baravari miqdorida
2.	Yuk avtomobillari uchun 1 yillik toʻlov	dona	3 baravari miqdorida

***** Mazkur hisoblangan tariflar bazaviy hisoblash miqdori (BXM) oʻzgarishi munosabati bilan qayta hisob-kitob qilinadi.